



TIIAME

Mavzu:Xiva xonligidagi ahvol hamda xon
hokimiyatining ag'darilishi.
XXSRning tuzilishi.

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi
Islamova S.



O'tilgan mavzuni takrorlash



TIIAME

- 1910-yildan boshlab Buxoro amirligida vaziyat qanday edi?
- “Kolesov voqeasi” nima maqsadda tashkil etildi va qanday oqibatlarga sabab bo‘ldi?
- Yosh buxoroliklar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
- Bolsheviklar va sovet hokimiyatining Buxoro ichki ishlariga aralashuvining kuchayishi sabablari nimada edi?





Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat va Yosh xivaliklar faoliyati.



TIIAME

- 1917-yil boshlarida Rossiya markazida yuz bergen voqealar Xiva xonligiga ham o‘z ta’sirini o’tkazmasdan qolmadi. 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni **Asfandiyorxon** (1910 – 1918) Yosh xivaliklar partiyasining islohot to‘g’risidagi manifestiga imzo chekdi. Yosh xivaliklar partiyasi **1914-yil** tashkil topgan edi. Manifestda yangi usul maktablari ochilishi, mamlakatda temiryo‘l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasi nazorat ostiga olinishi, bar-cha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta’mirlani-shi, butun aholining shariat oldida tengligi ta’kidlangan edi Asfandiyorxon



Xiva xoni **Asfandiyorxon** (1910 – 1918)



Xonlikda vaziyatning keskinlashib borishi



TIIAME

- Xiva xonligi mustaqilligiga sovet Rossiysi tomonidan tashqi xavfni his etgan xon mudofaa choralarini ko'rishga intildi. Asfandiyorxon tomonidan 1918-yil **Junaidxon** Xiva xonligi qurolli kuchlari qo'mondoni qilib tayinlandi. Junaidxonning asl ismi Qurbon Mamed Sardor bo'lib, u turkmanlarning yovmut urug'iga mansub bo'lган.
- Xiva xonligi hududining bir qismida Amudaryo bo'limi (markazi – Pet- ro-Aleksandrovsk; hozirgi To'rtko'l) tashkil qilingan bo'lib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan. Fevral inqilobidan keyin To'rtko'lда ham sovet hokimiyati o'rnatildi. To'rtko'lда turgan sovet qo'mondonligining harbiy kuchlari doimiy ravishda Xiva xonligi hududiga tajovuz solib turdi. Xonga qarshi muxolifatda turgan Yosh xivaliklarning aksariyat qismi ham bu yerdan boshpana topdi.



Qizil armiya tomonidan Xiva xonligining tugatilishi



TILAME

- 1919-yil 4-no- yabrda Yosh xivaliklar, To'rtko'ldagi inqilobchi communistlar guruhi hamda **Qo'shmamedxon Sapiyev** va **G'ulomalixon Bahodir** boshchiligidagi turk- man qabilalari Xiva xoni Said Abdullaxon va turkman yovmutlarining ye- takchisi Junaidxonga qarshi kurash boshlash uchun o'zaro ittifoq tuzib, Xiva shahrini egallash uchun qizil askarlarni yordamga chaqirdi.



Хивинское посольство во главе съ наследником хана хивинского принцем Сайд-Афандиар-Тюреем, прибывшее въ Петербургъ 18 июня и отъвшее 4 июля.



Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil qilinishi hamda undagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar



TIIAME

- Xiva shahrida 1920-yil 26 – 30-aprelda bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi e'lon qilindi. XXSR Nozirlar Sho'rosining raisi qilib Yosh xivaliklar partiyasining rahbari **Polvonniyoz Yusupov** saylandi. Qurultoyda XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasi va dastlabki Bayrog'i qabul qilindi. XX-
- SRning yosh hukumati BXSR, Turkiston ASSR, RSFSR davlatlaridan tashqari Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya, Turkiya, Afg'oniston, Eron kabi xorijiy davlatlar bilan ham mustaqil ravishda savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni olib borishga harakat qilgan. Masalan, 1921-yil 24-noyabrda Afg'onistonga qozikalon **Bobooxun Salimov** boshchiligidagi maxsus elchilik hay'ati jo'natilgan



- **O'zingizni sinang!**

1917-yil 5-aprel – bu ...

1919-yil 9-aprel – bu ...

1918-yil 30-oktyabr – bu ...

1918-yil 10-yanvar – bu ...



Savol va topshiriqlar:



TILAME

- Xivada xon huzurida tuzilgan Majlis va Nozirlar Sho'rosi xonning mutlaq hokimiyatini qay darajada cheklay oldi?
- Taxta qishlog'iда imzolangan shartnoma Xiva xonligi siyosiy holatiga qay darajada ta'sir ko'rsatdi?
- XXSR tuzilgach, soliq sohasida qanday ozgarishlar bo'ldi?